

UDK:631.8:635.21

**QORAQALPOG`ISTON TUPROQ –IQLIM SHAROYTIDA KARTOSHKA NAV  
NAMUNALARINI TURLI EKISH MUDDATLARIDA O`SIB-RIVOJLANISHI VA  
HOSILDORLIGINI ILMIY ASOSLASH**

**Absattarov Nietbay Allanbergenovich**

*b.i.k., Dotsent*

**Abdikadirov Abdulazim Abdijabbar uli**

*2-kurs magistranti Qaraqalpaqstan awil xojalig'i ha'm agrotexnologiyalari instituti  
abdulazimabdikadirov02@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisdagi Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproq-iqlim sharoitida kartoshka nav namunalarining turli ekish muddatlarida o'sib-rivojlanishi hamda hosildorlik ko'rsatkichlarini ilmiy asoslash masalalari o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida kartoshka nav namunalarining fenologik rivojlanish bosqichlari, o'sish dinamikasi, vegetatsiya davri davomiyligi hamda hosildorlik ko'rsatkichlari turli ekish muddatlari bo'yicha solishtirildi. Olingan natijalar asosida mintaqa sharoitida kartoshka yetishtirish uchun eng maqbul ekish muddatlari va yuqori hosildor nav namunalarini aniqlashga ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** *Kartoshka navlari, tuganaklar, ekish muddatlari, unip chiqish, tuganaklar, unimdorlik.*

**Abstract:** *This thesis examines the issues of scientific substantiation of the growth and development of potato varieties at different planting dates and yield indicators in the soil and climatic conditions of the Republic of Karakalpakstan. In the research process, the stages of phenological development, growth dynamics, duration of the growing season, and yield indicators of potato variety samples were compared at different planting dates. Based on the obtained results, scientific recommendations were developed for determining the optimal sowing dates and high-yielding varieties for potato cultivation in the region.*

**Keywords:** *Potato varieties, tubers, planting dates, germination, tubers, productivity.*

**KIRISH**

Ilmiy tadqiqotlar maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, kartoshkaning tashqaridan olib kelingan navlarining biologik va iqtisodiy samaradorligini taqqoslashda O'zbekiston Respublikasida ekishga tavsiya etilgan Samarqand viloyati (SamQXI) sharoitida duragaylash, klonli tanlash usuli asosida yaratilgan, Respublika reestriga 1985-yildan kiritilib, rayonlashtirilgan Zarafshon navi asosiy standart nav sifatida foydalanildi. Ertapishar, vegetatsiya davri 70-75 kun, tuganaklarining morfologik belgilari bo'yicha uzunchoq ovalsimon, rangi sariq, kraxmal miqdori 13-14%, bitta tuganak vazni 85 g, hosildorligi gektaridan o'rtacha 15-17 tonnani tashkil

qiladi. Mazkur kartoshka navining afzal tomoni shuki, erta ekishdan tashqari, kechki ekilganda yuqori biologik xususiyatlariga ega bo'lib, bakterial va virus tarqatadigan kasalliklarga bardoshli nav hisoblanadi.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston agroiqlimi sharoitida xalq seleksiyasi asosida barpo etilgan, bugungi kunda barcha fermer xo'jaliklari va tomorqalarga ekilib kelayotgan Do'simpalak navning morfologik belgilari va biologik rivojidagi asosiy afzalliklaridan, ertapishar nav sifatida erta va o'rta muddatlarda ekilganda o'suv davri 70-80 kun. Palagi o'rtacha, yotib o'sadi, rangi ko'k, ko'p o'simta beradigan nav. Barglar soni 170-185 dona, kesikli rangi ko'kimtir, tuksiz, o'rtacha tomirlagan. Gullashi o'rtacha, qisqa davrli hisoblanib, gultoji rangi sarg'ish-oq. Tuganagi qizg'ish-sariq, dumaloq, ko'zchalari ko'p, yuzasi qizg'ish rangda, sillik, o'rtacha vazni 50-120 g. Tavsiya etilgan agrotexnik tadbirlar ishlatilganda gektaridan 15,0-22,0 t hosil olinishi aniqlangan.

Bioekologik xususiyatlari mazkur agroiqlimi sharoitiga mos ertapishar va o'rtaertapishar kartoshka navlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoliy hududlari sharoitida maqbul ekish muddatlarini aniqlash maqsadida tuganaklari mart oyining birinchi (4-6 sanasi) o'n kunligidan boshlab ekildi. Ikkinchi muddat oying ikkinchi (15-17 sanasi) va uchinchi muddat (24-25 sanasi) o'n kunliklarida tanlab, tuganak ekish, vegetatsiya davridagi agrotexnik tadbirlar hudud sharoitida qo'llash tavsiya etilgan agrotexnik usullar yordamida amalga oshirildi.

Tajribalar uchun ekish sxemasi 70×30 sm tanlanib, bir gektardagi tup soni 47-48 mingtaga to'g'ri keladi. Tadqiqotlar davomida o'rtacha kunlik havo harorati, nisbiy namlik va yomg'ir me'yorlari tahlil qilib borildi.

Tajribaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib ekilgan kartoshka navlari nihollari tuproq yuzasiga chiqishidan boshlab, hosil yig'ib olinganga qadar fenologik kuzatishlar olib borildi. Tuganakni undirib olish yorug'lik yetarli, havo harorati 16-20°S, nisbiy namligi 80-85% ta'minlangan xonada 20-30 kun mobaynida tashkillashtirildi. Tuganak sig'imi 16-18 kg bo'lgan yashiklarga 2 qator qilib yoyib joylashtirildi va ustiga ho'l qum sepib qo'yilib, o'simtali bo'yi 3-4 sm yetib, qoramtir-ko'k rangga kirib baquvvatlashganda dalaga olib chiqib ekildi.

Kartoshka nihollarining unib chiqish jarayonlari bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari jadvalda berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tanlab olingan navlarning urug'lik tuganaklarining dala unuvchanligi ekish muddatlari bo'yicha keskin farqlandi.

Kartoshka nav namunalarini turli ekish muddatlarida tuganaklarining nihollarini unib chiqish, kun (2023-2025 yy.)

Navlarning nomi va kelib chiqishi	Tuganaklarni ekish muddatlari					
	4-6/III		15-17/III		24-25/III	
	10%	75%	10%	75%	10%	75%
Zarafshon (UZ) (st)	12,9	25,3	12,3	23,7	6,6	13,8
Quvonch 1656 M (UZ)	12,3	29,5	12,7	24,7	7,4	15,3
Fresko (NL)	13,4	27,0	11,2	22,3	7,3	16,3
Red. Skarlet (NL)	12,7	29,5	12,8	23,7	7,7	14,9

Arnova (NL)	14,8	26,9	12,0	22,1	9,2	15,9
Zafira (NL)	13,7	27,3	12,2	23,9	9,1	17,8
Sante (NL)	14,3	28,1	12,9	22,8	7,4	14,4
Evolution (NL)	13,4	26,8	11,6	23,8	8,2	15,5
Faluka (NL)	14,2	27,3	12,4	21,9	7,3	14,9
Impala (NL)	13,7	27,8	11,8	22,7	8,4	17,3
Romano (NL)	12,3	26,9	12,3	22,7	7,3	16,1
Umid-2 (UZ)	11,3	25,4	10,9	21,3	6,7	14,6
To'yimli (UZ)	13,2	27,1	13,1	24,8	8,8	17,2
Picasso (NL)	12,8	27,0	12,2	23,8	7,3	15,7
Surxon-1 (UZ)	13,2	27,9	12,1	22,8	6,8	14,6
Do'simpalak (UZ)	12,7	27,1	12,8	24,0	7,9	16,4

Natijalar: Sinalgan kartoshka navlarining qulay ekish muddatlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tanlab olingan kartoshka navlarining maqbul ekish muddatlari mart oyining uchinchi o'n kunligi ekanligi olingan natijalar bilan isbotlandi. Chunki, mazkur muddatda ekilgan kartoshka navlari 10 % tuganaklari 6,6-9,2 kun o'tishi bilan nihollar hisobga olingan bo'lsa, 75 % nihollarni unib chiqishi tuganaklar ekilgandan keyin 14,4-17,3 kun davomida kuzatildi.

Ekilgan kartoshka navlari dalalaridagi unib chiqqan nihollarni oyning sanalari bo'yicha hisobga olinganda mart oyining birinchi o'n kunligida ekilgan variantlarda aprel oyining birinchi o'n kunligida nihollar to'la unib chiqqan bo'lsa, ikkinchi va asosiy maqbul sharoit sifatida hisobga olingan jarayon uchinchi o'n kunlikda ekilgan joylarda aprel oyining ikkinchi o'n kunligida kartoshka navlari yoppasiga unib chiqqanligi qayd etildi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, kartoshka navlarini ekishdagi tanlangan birinchi va ikkinchi muddatlarda tuganaklar tuproqda uzoq turib qolishi asosiy omillardan ekanligi belgili bo'ldi. Buning asosiy sabablari tuganaklarning fiziologik rivojlanishi, unib chiqishi, nishlashi tuproq haroratining past bo'lishi bilan bog'lik ekanligi hisobga olindi. Tajribaning boshlanishi bilan ekilgan kartoshka tuganaklari unuvchanligiga va dastlabki o'sib-rivojlanish fazalariga havo va tuproq harorati ta'sirini aniqlab borish maqsadida har kungi ushbu omillarning o'zgarishi aniqlab borildi.

Tajriba dalasidagi kartoshka o'simligi o'sib-rivojlanishidagi asosiy fazalarining biri hisoblangan tuganaklarining shakllanishi, gullarning paydo bo'lishi. Hudud sharoiti abiotik omillarning ushbu fazaning boshlanishi (10 %) va to'la ro'y beradigan (75 %) gullashi muddatlarini aniqlash uchun tajriba dalalarida ekilgan kartoshka navlarida maxsus kuzatuvlar olib borildi.

Xulosa: Natijada, kartoshka navlarini ekish muddatlariga bog'liq bo'lgan gullashning boshlanish fazasi daladagi 75 % o'simliklarda gullarning paydo bo'lishiga navlar tuganaklarini ekish muddatidan tashqari, tashqi muhit omillari ta'sir ko'rsatishi hisobga olindi. Mazkur sharoitda erta ekish hisoblanadigan mart oyining birinchi o'n kunligida ekilgan tuganaklardan unib chiqqan poyalarning 10 % gullashi oradan 20,5-25,5 kun o'tganda va 75 % gul chiqqan o'simliklar esa 40,8-48,3 kundan keyin

hisobga olingan natijalar isbotlandi.

Ko'rsatilgan muddat darajasida gullashning kechikishi mart oyining ikkinchi o'n kunligida ekilgan dalada kuzatiladi. Dalada 10 % o'simliklar-ning gullashi uchun 20-21 kun talab ekilgan bo'lsa, 75 % o'simliklarda 35,8-40 kuni yoppasiga gullash fazasi qayd etildi.

Mazkur xudud sharoiti mart oyining uchinchi o'n kunligida ekilgan tuganaklardan chiqqan o'simliklarning o'sib-rivojlanishi, navlarning bioekologiyasiga oid xo'jalik belgilariga yaqin keladi. Sababi daladagi 10 % o'simlikda 18-21 kun o'tgach gullar paydo bo'lib, 36-41 kuni esa 75 % dan ziyod o'simliklarda gul ochilganligi kuzatildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Mamarasulova I., Umarova A., Ostonakulov T.E. Tog'li mintakada urug'lik kartoshka navlarini o'g'itlash me'yorining hosildorlikka tasiri. // Qishlok xo'jaligini rivojlantirishda talaba yoshlarning o'rni, SamQXI ilmiy to'plam. Samarqand, 2007. -B. 4-6.

2.Мельцаев И.Г. Урожай и качество картофеля зависят от технологии возделывания. //Ж. Картофель и овощи. М.: 2004. -№3. -С. 6-7.

3.Молявко А.А. Пути наращивания производства картофеля на юго-западе России. // Вопросы картофелеводства. Научные труды. ВНИИКХ. М.: 2002. -С.100.

4.Молянов В.Д, Шакуров Н.Ш. Сорта и технология возделывания раннего картофеля. //Ж. Картофель и овощи. М.: 2006. -№1. -С. 10.

5.Нишонов Н.Т. Рост, развитие и урожайность голландских сортов картофеля при двуурожайной культуре и сроки их летней посадки:// Автореф. дис.... канд. с.-х. наук. Самарканд, 2004. -С. 15.